# “Soliq” mobil ilovasi

Available on the App Store

GET IT ON Google Play

# Korxona haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi tomonidan 2020 yil mart oyida “Soliq” mobil ilovasi ishga tushirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida nazorat-kassa texnikasidan foydalanishni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 4-oktabrdagi PQ–5252-son qaroriga asosan Ilova orqali jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan xarid summasining 1 foizni ularning bank kartalariga qaytarish (cashback) tizimi joriy etilgan.



# Mahsulot haqida

Shuningdek, ilova orqali soliqlarni to‘lash (jumladan ota-onalar uchun), xarid cheklari va sayohat uchun keshbek olish, o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish, soliq qarzi va ish haqi to‘g‘risida ma’lumot olish, ijara shartnomalarini hisobga olish, markirovka kodini tekshirish, chet davlat fuqarolari uchun “Tax free” xizmatidan foydalanish hamda bir qator boshqa to’lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratilgan.



# «Soliq» mobil ilovasi  bo'yicha so’nggi statistik ma'lumotlari

«Soliq» mobil ilovasida ro‘yxatdan o‘tganlarning umumiy soni

# 6 010 900 ta

2024 yil yanvar oyiga nisbatan 284 100 ta farq bilan  4,93% lik o’sishni qayd etdi.



# «Soliq» mobil ilovasi bo'yicha so'nggi statistik ma'lumotlari

Faol foydalanuvchilar

**5 565 800 ta**



Shaxsini tasdiqlaganlar

**3 455 300 ta**




Xizmat turlari
1
Personal xizmatlar
11 ta
2
To‘lov xizmatlari
4 ta
3
Umumiy xizmatlar
11 ta
4
Xodimlar uchun
2 ta

# «Soliq» mobil ilovasida quyidagi xizmatlardan eng ko'p foydalanilgan:

1 «Xarid uchun keshbek» xizmati **66 371 141 marta**

2 «Ijaraga berish» xizmati **64 042 marta**

3 «O’zini-o’zi band qilish» xizmati **168 078 marta**

4 «Soliqlarni to'lash» xizmati **197 675 marta**

5 «Soliq hamkor» xizmati **9 882 marta**

# «Xarid uchun keshbek» xizmati

«Keshbek» xizmatida amalga oshirilgan xaridlaringizdan tushgan keshbek ma’lumotlari taqdim etilgan.



# «Ijaraga berish» xizmati

Ushbu xizmat orqali:

**Ko‘chmas mulkni ijaraga berish**



**Avtotransportni ijaraga berish**



**Talabalar uchun ijara shartnomasini rasmiylashtirish mumkin**



# «O’zini-o’zi band qilish» xizmati

“O‘zini o‘zi  band qilish” xizmati orqali  jismoniy shaxslar tizimda ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin.

O‘zini o‘zi band qilganlar – bu xizmatlar ko‘rsatishda mustaqil ravishda shaxsiy mehnati bilan ishtirok etadigan, mehnat daromadini olish uchun ish olib boruvchi shaxslar. Bunda ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olinmaydi va yollanma xodimlar mehnatidan foydalanmaydi.



# «Soliqlarni to'lash» xizmati

«Soliqlarni to‘lash» xizmati jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qator soliqlar bo‘yicha to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi. Ushbu xizmat orqali soliq qarzdorliklarini /qarzdor emas holatlarni nazorat qilish mumkin.



# «Soliq hamkor» xizmati

«Soliq hamkor» xizmati soliq huquqbuzarliklari haqida xabar berib, soliq organlari bilan masofadan hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etadi.



## “Soliq” mobil ilovasi

# "Soliq" mobil ilovasi— soliq xizmatlarini ko‘rsatishda ishonchli hamkor!

Manzil:“Yangi texnologiyalar”
ilmiy axborot markazi,
Toshkent sh. Muqimiy ko’ch., 166-uy

Telefon raqam:
+998 71 202 32 32

Email: info@yt.uz